ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining

“Boshlang'ich ta'lim” fakulteti BT-502-guruh talabasi

Ergasheva Maxliyo Shirinboyevna

TA’LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning nazariy va ilmiy asoslari tizimli tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida sifat tushunchasining mazmuni, unga ta’sir etuvchi omillar, sifatni boshqarish va baholashning ilg‘or yondashuvlari yoritiladi. Mualliflar ta’lim xizmatlarini iqtisodiy kategoriya sifatida baholash bilan birga, uning pedagogik, ijtimoiy va innovatsion jihatlariga ham alohida e’tibor qaratadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi asosida O‘zbekistonda ta’lim sifati bo‘yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Xulosa qismida esa, ta’lim xizmatlarini barqaror rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, xizmatlar bozori, ta’lim tizimi, nazariy asoslar, sifatni baholash, innovatsion ta’lim, xalqaro tajriba, pedagogik xizmatlar, ta’lim menejmenti, sifat standarti.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются теоретические и научные основы повышения качества образовательных услуг. Осветлены содержание концепции качества в современной системе образования, факторы, влияющие на него, и передовые подходы к управлению и оценке качества. Авторы, рассматривая образовательные услуги как экономическую категорию, уделяют особое внимание их педагогическим, социальным и инновационным аспектам. На основе опыта развитых стран мира анализируются существующие проблемы качества образования в Узбекистане и пути их решения. В заключении представлены предложения и рекомендации по устойчивому развитию образовательных услуг.

Ключевые слова: качество образования, рынок услуг, система образования, теоретические основы, оценка качества, инновационное образование, международный опыт, педагогические услуги, управление образованием, стандарт качества.

Abstract: This article systematically analyzes the theoretical and scientific foundations for improving the quality of educational services. It explores the concept of quality in the modern education system, the factors influencing it, and advanced approaches to quality management and assessment. The authors, considering educational services as an economic category, pay particular attention to their pedagogical, social, and innovative aspects. Drawing on the experience of developed countries, they analyze existing problems with education quality in Uzbekistan and ways to address them. The conclusion presents proposals and recommendations for the sustainable development of educational services.

Keywords: education quality, services market, education system, theoretical foundations, quality assessment, innovative education, international experience, pedagogical services, education management, quality standards.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmatlari sifatini oshirish eng yangi innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Ta’lim xizmatlari sifati o‘quv jarayonida ishtirok etadigan barcha omillar – o‘qitish usullari, o‘qituvchilar malakasi, ta’lim resurslari va boshqalar – orqali o‘quvchilarga beriladigan bilim va ko‘nikmalar darajasini belgilovchi tushuncha sifatida qaraladi.

Ushbu sifat ta’lim natijalari, o‘quv jarayonidagi sharoitlar va ta’lim xizmatlarining talab va ehtiyojlarga qanchalik mos kelishi bilan aniqlanadi. Ta’lim xizmatlari sifati o‘quvchilar va jamiyat ehtiyojlariga javob berib, ularning bilim darajasini oshiradi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bu sifatning asosiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi [5]:

-Pedagogik sifat;

- ta’lim berishning samaradorligi va o‘qituvchilar malakasining darajasi;

- Ta’lim dasturi va kontenti;

- o‘quv dasturlarining dolzarbligi va mazmuni;

- O‘quv muhiti va sharoitlari;

- o‘quvchilarning qulay va samarali ta’lim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar;

-O‘quvchilar natijalari;

-o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi;

- Innovatsiya va texnologiyalar;

- ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish;

- Boshqaruv sifati;

- ta’lim tizimining samarali boshqarilishi.

Shunday qilib, ta’lim xizmatlari sifati o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini oshirish va kelajak talablari bilan hamohang bo‘lishga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning bilim va tajribasi hamda ta’lim jarayonini boshqarish qobiliyati ta’lim sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning zamonaviy va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanishi ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilarning zamonaviy dasturlardan foydalangan holda o‘quvchilarga ilg‘or bilimlarni yetkazishi va bu bilimlarning o‘quvchilarning kasbiy ehtiyojlariga mos kelishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy o‘quv dasturlarining doimiy yangilanishi, ularga zamonaviy texnologiyalar va metodlarning integratsiya qilinishi ta’lim sifatini yanada yuksaltiradi. Shunday qilib, o‘qituvchilarning malakasi va zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashi ta’lim xizmatlarining umumiy darajasi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita hissa qo‘shadi. Maktablar va universitetlarning texnik va moddiy bazasi, jumladan, o‘qish sinflari, laboratoriyalar va texnologik vositalar ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarga

Yangi sharoitlarda oliy ta’lim muassasalari moslashish, yashab ketish va rivojlanishlari uchun nafaqat, ta’lim xizmatlari bozori holatini doimiy kuzatib borishlari, shu bilan birga ana shu bozordagi o‘z holatini baholashi, ta’limbozori rivojlanishini bashoratlash usullaridan foydalanishi, o‘zining kelajakdagi holatiningmuqobil variantlarini ishlab chiqishi, xususan o‘zining holatini boshqarishga nisbatanstrategik yondoshuvlardan foydalanishi lozim. Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ta’limmuassasasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda har doim ham strategik rejalashtirishningstandart qoliplaridan foydalanib bo‘lmaydi. OTM holatini baholashning universal mezonlaridan biri bo‘lib, shaxs shakllanishining barcha bosqichlarini, o‘quv-tarbiya jarayonining sharoitlari va natijalarni majmuaviy ko‘rsatkich sifatida, shuningdekta’lim muassasasi faoliyati samaradorligi mezoni sifatida, erishilishi mumkin bo‘lgannatijalarni meyoriy shartlarga, ijtimoiy va shaxsiy istaklarga muvofiq bo‘lishini belgilovchi sifat ko‘rsatkichi xizmat qiladi. OTMda ta’lim sifati – oliy ta’limni rivojlantirishning har bir bosqichi uchun dolzarb bo‘lgan masaladir.

Bugungi kunda u, ta’lim xizmatlari bozorida – davlat ta’lim tizimida ham, shuningdek nodavlat ta’lim tizimida ham, ta’limxizmatlari bozorida raqobatning keskin kurashi bilan bog‘langan. So‘ngi yillarda aynan ta’limsifati, mamlakatning rivojlanish darajasini ko‘proq belgilab bermoqda, o‘sib kelayotgan avlodni mutaxassis qilib tayyorlash hisobiga uning havfsizligi va salohiyatini ta’minlovchi strategik sohaga aylanmoqda. Xalqaro darajada ko‘tarilgan, mazkur muammo to‘lqiniga e’tiborni, birinchi navbatda, Yevropa davlatlari ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni, sifatni xolis baholashningtizimi bo‘lganda, o‘zaro tan olish bilan bog‘lay boshladilar.

Barcha Yevropa davlatlarining milliy ta’lim tizimlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi oliyta’lim tizimini ham mazkur yo‘nalishda harakatlantirish uchun bir qator umumiy muammolar hal etilishi kerak: - ta’lim sifatini ta’minlash mas’uliyatini davlat va ta’lim muassasasi o‘rtasida taqsimlash;- ta’lim sifatini baholashning milliy tizimlarini, shu jumladan OTMda sifatni ichki baholash tizimini takomillashtirish; - qiyoslash mumkin bo‘lgan nazorat – baholash materiallarini, ularni setrifikatsiyalash, dasturlarni va ta’lim muassasalarini akkreditatsiyalash dasturlarini ishlab chiqish tizimini ta’minlash, ta’lim sohasini qiiyoslash sohasida halqaro qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish.

Respublikamizda mazkur muammoni yaqin istiqbolda yechishning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: - umumevropa, shuningdek dunyomehnat bozorida ham, oliy kasbiy ta’limning raqobatbardoshligini ta’minlash; - ta’limfaoliyati samaradorligini baholash mezonlari (yuklama, daraja, ta’limdagi yutuqlar natijalari, kompetentlik, kompetensiya) to‘plamini ishlab chiqish; - baholash tamoyillarini asoslash, hamda barcha darajada ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish. Mehnat bozori ehtiyojlariga javob bera oladigan kasbiy ta’lim sifatini takomillashtirish masalalari Respublikamizda ta’limni rivojlantirishning maqsadli dasturlarida ham o‘z aksini topmoqda.

Milliy oliy ta’lim tizimi sifatini oshirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz [2]:

- davlat ta’lim standartlarini va ularning o‘quv-uslubiy bazasini ularning mazmuni va ta’lim texnologiyalarining quyidagilarga muvofiqligini ta’minlash maqsadida qayta ko‘rib chiqish kerak;
- zamonaviy jamiyat talablariga muvofiqligi (“tayyor bilimlarni berish”dan “kompetensiyani shakllantirish”ga o‘tish);
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shartlarigamuvofiqligi (tarmoqlar bo‘yicha va mintaqalar kesimida mehnat bozori ehtiyojlarigamuvofiqlikni ta’minlash);

- mazkur soha va fanning zamonaviy rivojlanish darajasiga muvofiqlik; - fuqorolik jamiyati institutlarini, xususan kasbiy va ilmiy hamjamiyatlarni, ish beruvchilar birlashmalarini ta'lim sifatini baholash masalalariga, standartlarni ishlab chiqishdan tortib, to natijalarni nazorat qilgunga qadar, jalb etishning samarali mexanizmini yaratish;
- kasbiy ta'limni ilmiy-tadqiqot faoliyati, hamda innovatsion universitetlar, ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish orqali, amaliy faoliyat bilan mustahkam aloqalarini o'rnatish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tijoratlashuvi mexanizmini yaratish;
- xolis ekspertiza asosida, shu jumladan xalqarotashkilotlar va ekspertlarni jalb etish orqali litsenziyalash, davlat akkrekditatsiyasi jarayonlarini takomillashtirish; - filiallarda va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'limsifatini nazorat qilishni kuchaytirish;
- ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishni takomillashtirish;
- ta'lim muassasalarida sifatni nazorat qilishning ichki mexanizmlarini yaratish.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim sifatini ta'minlashda, eng avvalo, kadrlar strategiyasini shakllantirishi zarur. Muassasa rahbari buning uchun hamkasblari bilanturli munosabatlarga kirishishi, ishga doir barcha munosabatlarda ijodiy yondoshishi, kerakli axborotlarni o'zlashtirishi va undan foydalanishni to'g'ri tashkil etishi lozim. Oliy ta'limning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ta'lim sifatini ta'minlashda kadrlar siyosatini to'g'ri belgilashlari uchun istiqbolli strategiyani ishlab chiqishlari zarur.

Mazkur muammoni hal qilishda iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan ehtiyojlariga javob bera olgan holda, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda markaziyhokimiyatning boshqaruvchilik faoliyatiga qo'shimcha sifatida, talabdan kelib chiqqan holda, OTMlarga qabul sonini ko'paytirish yoki kamaytirish imkonini berishmaqsadga muvofiq. Bu esa, diplomga ega oliy ma'lumotli bitiruvchilarga bo'lganbozor talabi bilan mavjud tizim o'rtasidagi tafovutni qisqartirishning bozor mexanizmiga imkon beradi.

Shuni aytish lozimki bilimlar iqtisodiyoti qachonki inson kapitalini sotish va sotib olish jarayonini aks ettirsa, u holda unga iqtisodiy munosabat biznes jarayoni sifatida yondashish mumkinligidan kelib chiqadi. Inson kapitaliga investitsiyalar bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu o'rinda esa, u ijtimoiy-iqtisodiy munosabat shaklini olishi mumkin. Chunki, inson kapitalini oshirish, innovatsion iqtisodiyotni bir maromda saqlash uchun pul va mulk munosabatlariga kirishishni taqozo etadi. Bilimlar iqtisodiyoti inson kapitalini sotish va sotib olish jarayonini aks ettirishi mumkin, chunki u nafaqat bilimlarning jamg'arilishi va taqsimlanishi, balki ushbu bilimlarni iqtisodiy faoliyatda qo'llanilishi orqali qiymat yaratishga qaratilgan.

Inson kapitalining o'sishi, ya'ni ta'lim va kasbiy malaka, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, bilimlar iqtisodiyoti nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy tizimning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, balki shu bilan birga, uning rivojlanishiga investitsiyalarni jalb qilish va inson kapitaliga yo'naltirilgan yangi biznes jarayonlarini yaratish uchun imkoniyatlar yaratadi. Inson kapitaliga investitsiyalar – bu nafaqat malaka oshirish va ta'limga sarflanadigan mablag'lar, balki ularning jamiyat va iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar, masalan, ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kiritilgan sarmoyalar.

Inson kapitali, o'z navbatida, bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga hissa qo'shadi. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradigan boshqa omil esa, ta'limning sifatini oshirish va iqtisodiy sohalarda yangi bilimlarni kengaytirishga qaratilgan yondashuvlardir. Bu jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatda bilimlarni yaratish va ishlatishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, inson kapitalining rivojlanishi faqat o'quv va ilmiy sohalarda emas, balki

iqtisodiy munosabatlar va pul-mulk tizimida ham aks etadi. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar va investitsiyalar zarur, chunki innovatsiyalar va yangi texnologiyalar o‘zida katta iqtisodiy qiymat yaratadi. Bu esa inson kapitalining oshishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bilimlar iqtisodiyoti va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va jamiyatning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish va ta’lim tizimini yangilash orqali innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin. Shu bilan birga, bu jarayonlarning muvaffaqiyati iqtisodiyotning yangi ehtiyojlariga va jamiyatning ilg‘or talablariga mos ravishda samarali ishlab chiqilgan siyosatlar va iqtisodiy tizimlar orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. D.T.Yusupova. Universitet 3.0 konseptsiyasi asosida bilimlarni tarqatish va tijoratlashtirish. "Ta'limda tadbirkorlik" Unesco-Apeid (Osiyo-Tinch okeani rivojlanish uchun ta'lim inovatsiyalari dasturi) 10-kengashi doirasida "Yoshlar - kelajagi va ta'limda tadbirkorlik " mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plami. 2024 yil, 10 oktabr. 395-405 betlar.
2. D.T.Yusupova. Ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlash strategiyasinig asosiy yo‘nalishlari. https://portfolio.afu.uz
3. D.T.Yusupova. Oliy ta’lim tashkilotlari faoliyotini raqamlashtirishning xorij tajribasi /// Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 2024-yil, noyabr, №9- son. 89-97-betlar. https://www.marketing journal.uz
4. Ахмедова Б.А. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim xizmati sifatini oshirishda ekonometrikadan foydalanish metodikasi." ЎЗМУ хабарлари 1 (2022): 42-45.
5. Ахмедова Б.А. "Рақамли иқтисодиёт шароитида таълим хизмати сифатини оширишнинг моҳияти ва вазифалари." ЎзМУ ХАБАРЛАРИ 1.1/6 (2022):
6. Ахмедова Б.А. "Ta’lim xizmatlarini sinergik samaradorligini oshirish modellari." Лучшие интеллектуальные исследования 38.3 (2025): 170-175.
7. Ахмедова Б.А.. "Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta’lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari." Лучшие интеллектуальные исследования. (2025): 176-180.
8. Axmedova, Barno. "Ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning nazariy-ilmiy asoslari." Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (2025).